ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№2(1)
2026

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 234 sahifa,
2-fevral, 2026-yil.

**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

*TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI*
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
***Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent***
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Doniyorov S. M. –"Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent***

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna** – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
*Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor*
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***
***Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ

# MUNDARIJA

O'quvchilarni intellektual rivojlantirishning psixologik omillari ....... 22
Ashurov Ramzidin Ramazonovich

Maktabgacha ta'limda bolaning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda oila bilan ishlashning nazariy asoslari ....... 27
Jumanova Fatima Uralovna, Allaberganova Munisa Begimboy qizi

Maktabgacha ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishning metodologik asoslari ....... 32
Jo'rayeva Nargiza Tairovna, Bekbergenova Yulduz Tanirbergen qizi

Faoliyatli yondashuv asosida maktabgacha 6-7 yoshli bolalarda nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi ....... 35
Ziyodullayeva Mohirabonu Ikromjon qizi

Davlat ta'lim muassasalarida manfaatlar to'qnashuvini boshqarishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari ....... 39
Xaybatullaeva Sojidaxon Ziynatullayevna

Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini oshirishda integratsion yondashuv ....... 42
Kamolitdinov Mirzohid

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda interfaol metodlarning samaradorligi ....... 45
Kamolitdinova Dilnoza Axmadilaxanovna

Bo'lajak tarbiyachilarda kreativ faollikni rivojlantirish mexanizmlari ....... 48
Nurjanova Rayxan Urazbaevna

Sinf biologiya fanini o'qitishda TIMSS topshiriqlardan foydalanish metodikasi va baholash mezonlari ....... 52
Xaitboyeva Dilorom Rustam qizi

Qandli diabet tashxisli bemorlarda shaxs tuzilmasining emotsional komponentlari ....... 56
Sadikova Umida Botirovna

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda pedagogik diagnostikani amalga oshirishning natijaviyligi ....... 60
Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna, Qodirova Shaxnoza Saidazim qizi

Kasbiy imij shakllanishida psixologik jihatlarning tafovutlari ....... 64
Aminova Dilnoza Orifjonovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining jamoa bilan ishlash jarayonida yetakchilik kompetensiyalarini rivojlantirish ....... 69
Abdiyeva Fazilat Fayzulla qizi

Kichik maktab yoshidagi bolalar shaxsi rivojlanishida psixologik moslashuvning tipik xususiyatlari ....... 73
Mirsaitova Guzal Baxodirovna

Oliy ta'lim tizimida variativ modellashtirish asosida talabalarning kreativ faoliyatini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarining qo'llanilishi ....... 76
Quvvatova Mohira Hikmatillayevna

Interfaol treninglar orqali o'qituvchilarning innovatsion fikrlashini rivojlantirish tajribasi ....... 79
Abdiyeva Shodiyona Yodgor qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyani shakllantirishning ahamiyati ....... 82
Zulayxo Nazarova, Qarshiboyeva Muxlisa Ismatullo qizi

Ijodiy qobiliyatni o'stirishda pedagogik mahorat va innovatsion metodlar ....... 85
Mutallibova Odinaxon Mirzaolimjon qizi

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida olimpiadalarga tayyorlashda masalalar yechish texnologiyasi 11-sinf misolida ....... 89
Aslonov Xayrullo Shukrullo o'g'li

Bokschi qizlarni texnika taktikasini takomillashtirish ........ 94
Axmedov Latifjon G'ayrat o'g'li

Ixtisoslashtirilgan terminologiyaning asosiy lingvistik xususiyatlari ........ 99
Axmedova Dilnoza Anvarovna

Interfaol metodlar orqali zamonaviy darslarni tashkil etishning oʻziga xos tendensiyalari ........ 102
Bakirov Otabek Bo'ranovich

Boshqaruv psixologiyasi terminlarini tarjima qilishning metodologik muammolari ........ 106
D. J. Norboyeva

Raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim muassasalari talabalari ruhiyatiga virtual muhitning salbiy ta'siri ........ 110
Giyosov Ulug'bek Eshpulatovich, Turayeva Nigora Husniddin qizi

Hamshiralik ishida raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi ........ 113
Rasulova Gulmira, Amonova Dildora, Abdurahmonov Aziz, Hakimova X. X.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida kognitiv qobiliyatlarni shakllantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar ........ 117
Jumayev Xushboq Soatmumin o'g'li

Principles of Organising Autonomous Learning ........ 121
Khazratova Zukhra Mamaraimovna

Najot – ta'limda, najot-tarbiyada ........ 124
Mo'minova Manzura Mamasodiqjonovna

Educational Potential of Museum Pedagogy and Criteria for its Application in Developing Historical Thinking of Pre-Service History Teachers ........ 127
Niyozov Javlonbek

Landshaft dizayni vostasida boʻlajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining estetik va kreativ koʻnikmalarini rivojlantirish ........ 131
Radjapova Zuxra Tirkashevna

Abdulla Avloniy pedagogik merosida shaxs psixologiyasi masalalari ........ 134
S. O. Mamarasulov, D. A. Egamberdiyeva

TBL metodini qoʻllash orqali oʻquvchilarning madaniyati va ijtimoiy muloqot koʻnikmalarini rivojlantirish ........ 138
Sodikova Oyshakhon Muxammadsodik

Pedagogik innovatsiyalarni boshqarishning nazariy-metodologik asoslari ........ 142
Solihova Barno Sodiq qizi

Boshlangʻich ta'lim magistratura talabalarining ijodiy faolligini rivojlantirish shart-sharoitlari ........ 146
Yarmatov Shermo'min Rahmatovich

Формирование готовности родителей детей старшего дошкольного возраста к выполнению воспитательной функции в семье ........ 149
Атаджанова Сохиба Талиповна

Redjio pedagogik yondashuv asosida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlash koʻnikmalarini shakllantirish pedagogik muammo sifatida ........ 152
Djamilova Nargiza Nuritdinovna, Otahonova Marjona

Talabalarda algoritmik kompetentlikni rivojlantirishning sun'iy intellekt va Big Data Analytics asosida oʻquv faoliyatini real vaqt rejimida kuzatuvchi va boshqaruvchi konseptual modelni takomillashtirish ........ 155
Kayumova Nazokat Rashitovna

Raqamli ta'lim muhitida chet tili oʻqituvchilari va talabalar oʻrtasidagi interaktsiyaning pedagogik samaradorligi va innovatsion mexanizmlari ........ 163
Eshonqulova Umida Xolmirzayevna

MTTlarda nutqni rivojlantirishga doir mashgʻulotlarda interfaol usullardan foydalanish texnologiyasi ........ 168
To'laboyeva Iqbolaxon Olimjonovna

Ta'lim jarayonidagi konfliktlar ........ 173
Abulova Mohigul Komiljonzoda

Talabalarning bolalarda ijtimoiy moslashuvni shakllantirishga kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish ........ 176
Inomova Mahliyo Yusuf qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Shaxs tuzilmasida ma'naviy intellekt: nazariy-metodologik tahlil va psixologik interpretatsiya ........ 179
**Mirxoliqova Charos Xabibullaevna**

18-20 yoshli belbog'li kurashchilarning musobaqa oldi jismoniy tayyorgarliklari ........ 183
**Muzafarov Muxammadali Maxsudovich**

Talabalarda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanib kasbiy madaniyatini rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlar (boshlang'ich ta'limda tarbiya fani misolida) ........ 187
**Yadgarova Surayyo**

Maktab o'quvchilariga pedagogik ta'sir ko'rsatishda o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish ........ 190
**Yo'ldoshova Shahlo Shukurullo qizi**

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirishning nazariy tahlili ........ 194
**Yusupova Sanobar Odil qizi**

Типология научного текста: от жанровой классификации к дискурсивной модели ........ 197
**Бахтияр Катибжанович Саттаров**

Взаимодействие педагога и семьи в профилактике и преодалении стресса у детей дошкольного возраста ........ 201
**Г. С. Алиходжаева, Х. Рахимова**

Условия эффективности инклюзивного образования ........ 206
**Г. С. Алиходжаева, Л. О. Бекмуродова**

Педагогическая готовность к обучению в школе детей билингов ........ 211
**Г. С. Алиходжаева, Н. А. Ганиева**

Педагогические условия формирования эмоционального интеллекта у дошкольников ........ 216
**Джалилова Феруза Намазовна**

Milliy meros va musiqiy madaniyatning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni ........ 219
**Zuhriddin Azizov**

Госпитальная школа как пространство поддержки и развития ребёнка (на примере госпитальной школы при детской клиники Синсиннати, США) ........ 222
**Муминов Р. Р., Хакимова Н. Х., Набиева Г. Г.**

Интерактивные формы работы в процессе профориентации детей дошкольного возраста ........ 227
**Н. Т. Жураева, С. М. Ахмеджанова**

Samarali hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlashga oid yondashuvlar ........ 231
**Hojiyeva Zulfiya O'ktamovna**



# INTERFAOL METODLAR ORQALI ZAMONAVIY DARSLARNI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS TENDENSIYALARI

Bakirov Otabek Bo'ranovich
Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi,
Boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasi mudiri,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari, ularning ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rni hamda darslarni tashkil etishdagi asosiy tendensiyalar tahlil qilinadi. Shuningdek, o'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuv, raqamli texnologiyalar bilan integratsiya, kompetensiyaviy ta'lim hamda o'qituvchi rolining transformatsiyalari yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** interaktiv, interfaollik, kompetensiya, transformatsiya, "Blist-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Muammoli ta'lim", "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotatsiya", "Yumaloqlangan qor".

**Abstract:** This article analyzes the theoretical and practical aspects of using interactive methods in modern education, their role in increasing educational effectiveness, and the main trends in lesson organization. It also highlights a learner-centered approach, integration with digital technologies, competency-based education, and transformations in the role of the teacher.

**Key words:** interactive, interactivity, competence, transformation, "Blitz survey", "Modeling", "Creative work", "Problem-based learning", "Brainstorming", "Boomerang", "Gallery", "Zig-zag", "Step-by-step", "Icebreaker", "Rotation", "Snowball".

**Аннотация:** В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты использования интерактивных методов в современном образовании, их роль в повышении эффективности обучения, а также основные тенденции в организации уроков. Также освещаются подходы, направленные на развитие личности обучающегося, интеграция с цифровыми технологиями, компетентностно-ориентированное образование и трансформации роли учителя.

**Ключевые слова:** интерактивный, интерактивность, компетентность, трансформация, "Блиц-опрос", "Моделирование", "Творческая работа", "Проблемное обучение", "Мозговой штурм", "Бумеранг", "Галерея", "Зигзаг", "Шаг за шагом", "Айсбрейкер", "Ротация", "Снежный ком".

## KIRISH

Bugungi kunda dolzarb muammolardan biri ta'lim tizimi sifatini yaxshilash va o'quvchilarga sifatli ta'lim berishdan iborat. Buning uchun pedagoglardan interfaol metodlardan unumli foydalanish, to'g'ri tanlov asosida darslarni tashkil etish hamda o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishni uyg'otish talab etiladi. Shu bilan birga, pedagogning o'z ustida muntazam ishlashi, yangi interfaol metodlarni izlab topishi va ularni amaliyotga joriy etishi ta'lim jarayonidagi asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. Ushbu zamonaviy metodlardan samarali foydalanish o'qitish jarayonida yuqori natijalarga erishish imkonini beradi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son[1] Farmoni hamda Milliy o'quv dasturiga asosan 2026-yilga qadar 699 nomdagi, shu jumladan 2022-yilda 296 nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, o'qituvchi metodik qo'llanmalari hamda mobil ilovalarni yaratish, umumta'lim maktablarida darslik va o'quv-metodik

1 https://lex.uz/docs/-5841063

majmualarni tajriba-sinovdan o'tkazish hamda chet ellik mutaxassislar ishtirokida ekspertizadan o'tkazish tizimini joriy etish belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son[2] Farmonida esa O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy hamda intellektual jihatdan rivojlantirishni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakl va usullarini joriy etish lozimligi alohida ta'kidlangan.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan kunga ortib bormoqda, chunki an'anaviy ta'lim jarayonida o'quvchilar asosan tayyor bilimlarni egallashga yo'naltirilgan bo'lsa, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish ularni bilimlarni mustaqil izlab topish, o'rganish, fikrlash, tahlil qilish hamda yakuniy xulosalarni mustaqil shakllantirishga o'rgatadi. Ushbu jarayonda o'qituvchi shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishi uchun zarur sharoitlarni yaratib, bir vaqtning o'zida boshqaruvchi va yo'naltiruvchi funksiyalarni bajaradi.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida qo'llanilayotgan metodlar interfaol metodlar sifatida e'tirof etilib, ular barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng tatbiq etilmoqda. Interfaol ta'lim metodlari ta'lim oluvchini butun jarayon davomida faol ishtirok etishga undab, ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvni ta'minlaydi, buning natijasida ta'lim samaradorligi oshadi, o'quvchilar yuqori darajada rag'batlantiriladi, ilgari egallangan bilim va tajribalar e'tiborga olinadi, ta'lim jarayoni ta'lim oluvchilarning maqsad va ehtiyojlariga moslashtiriladi, tashabbuskorlik va mas'uliyat qo'llab-quvvatlanadi, amaliy faoliyat orqali o'rganish imkoniyati yaratiladi hamda ikki tomonlama fikr-mulohaza almashish uchun qulay sharoit shakllanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Fanlarni o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega. Ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o'rganish va amalda qo'llash o'quvchilarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to'g'ri yechimini topishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, shu bilan birga ularning ijodkorligi va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari kengayadi hamda chuqurlashadi.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib, interfaol ta'lim metodlarini tizimli ravishda tahlil qilish va shu asosda ularni tasniflash zarurati yuzaga keladi. Ushbu metodlarni tasniflashda ularni interfaol metodlar, interfaol ta'lim strategiyalari va interfaol grafik organayzerlarga ajratish mumkin. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida eng ommaviy interfaol metodlar sifatida "Keys-stadi" yoki "O'quv keyslari", "Blits-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Muammoli ta'lim" kabi usullar qo'llanilmoqda, interfaol ta'lim strategiyalariga esa "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muz yorish", "Rotatsiya", "Yumaloqlangan qor" va boshqa strategiyalar kiradi. Interfaol ta'lim metodlari tarkibidan interfaol ta'lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil etishga oid yondashuvlarning ma'lum darajada strategik xususiyat kasb etishi asos qilib olinadi, biroq mazmunan ushbu strategiyalar ham interfaol ta'lim metodlarining tarkibiy qismi bo'lib, ular o'rtasida keskin farqlar mavjud emas. Shuningdek, "Baliq skeleti", "BBB", "Konseptual jadval", "Venn diagrammasi", "T-jadval", "INSERT", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?" kabi interfaol grafik organayzerlar ham ta'lim jarayonida keng qo'llaniladi va ulardan foydalanishda asosiy fikrlarning turli grafik shakllarda yozma tarzda ifodalanishi muhim hisoblanadi.

Aslida, grafik organayzerlar bilan ishlash ham mazmunan interfaol ta'lim metodlariga taalluqli bo'lib, ular o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlar ko'pincha turli shakldagi o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan uyg'un holda qo'llanilib, mashg'ulot ishtirokchilarining faolligini oshiradi va ta'lim samaradorligini yaxshilaydi. Interfaol metodlarni tanlashda ularning ta'lim mazmuni xususiyatlariga mosligi muhim mezon hisoblanadi, chunki metod mazmunning harakatlanish qismi sifatida namoyon bo'ladi va bu mezonning inobatga olinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bir metod mavzu mazmunini chuqurroq ochib berishga xizmat qilsa, boshqasi uni samarali o'zlashtirish imkonini yaratadi. Shuningdek, interfaol metodlarning o'quvchilarning o'quv imkoniyatlariga mos kelishi, ya'ni samarali o'quv faoliyati uchun zarur bo'lgan ichki va tashqi shart-sharoitlar birligini ta'minlashi ham muhim mezonlardan biridir.

Bugungi kunda jamiyatning turli sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar kelajak avlod oldiga muhim vazifalarni qo'ymoqda va O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining ta'limga oid qarorlarida bilimli, ijodkor, izlanuvchan, dunyoqarashi keng va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan yoshlarni tarbiyalash asosiy maqsad sifatida belgilangan. Ushbu vazifalarni to'laqonli amalga oshirish

2 https://lex.uz/docs/-4312785

uchun ta'lim sifatiga alohida e'tibor qaratish lozim, chunki O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning bosh maqsadi barkamol shaxs va malakali mutaxassislarni tarbiyalashdan iboratdir. Ta'lim-tarbiyaning davlat va jamiyat uchun qadr-qimmatini belgilovchi ijtimoiy omillar muhim bo'lsa-da, ular ta'limning shaxs bilan bog'liq qadriyatlarini, ya'ni insonlarning o'z bilimiga, uning darajasi va sifatini oshirishga bo'lgan munosabatini aks ettirishi zarur.

Ta'lim jarayonining sifati, undagi umumiy va xususiy jihatlarning o'zaro uyg'unligi hamda bir-birini to'ldirib borishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, shu nuqtai nazardan interfaol metodlarning ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni va ahamiyatini asoslash lozim. Interfaollik o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot jarayonida namoyon bo'ladi va interfaol metodlardan foydalanib dars o'tishning asosiy maqsadi ta'lim jarayoni uchun qulay sharoit va vaziyatlar yaratish orqali o'quvchining ijodiy, faol va erkin fikrlashi uchun muhit yaratishdan iboratdir.

Ta'lim jarayonida interfaol metodlarni qo'llashda o'qituvchining roli beqiyos bo'lib, o'qituvchilarda pedagogik faoliyatni interfaol metodlar asosida tashkil etish malakasini shakllantirish yagona maqsadga yo'naltirilganlik, izchillik, tizimlilik va uzluksizlik, mavjud shart-sharoitlarni inobatga olish, pedagogik mahoratni erkin namoyish etish, nazariy va amaliy faoliyat birligi hamda xorijiy tajribaga tayanish kabi tamoyillar asosida amalga oshiriladi. Ta'lim jarayonini interfaol metodlar asosida tashkil etish moddiy-texnik bazaning mavjudligi, pedagogik monitoringning yo'lga qo'yilganligi va adabiyotlar bilan ta'minlanganlik kabi obyektiv omillar, shuningdek o'qituvchilarning interfaol metodlarga qiziqishi, ularning mohiyatidan xabardorligi, amaliy qo'llay olish mahorati, ijodkorlik va izlanuvchanlik sifatlari hamda pedagogik faoliyatni interfaol metodlar asosida tashkil etayotgan o'qituvchilarni rag'batlantirib borish kabi subyektiv omillar bilan belgilanadi.

O'qituvchilarning pedagogik faoliyatini interfaol metodlar asosida tashkil etish borasidagi mahorati o'quvchilar bilan samarali muloqotni yo'lga qo'ya olish, pedagogik faoliyatga ijodiy yondashish, pedagogik vaziyatlarni to'g'ri baholash va ularga muvofiq xatti-harakatlarni tashkil eta olish ko'nikmalarining shakllanganligi bilan tavsiflanadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Interfaol metodlardan foydalanishda o'qituvchi, eng avvalo, darsning texnologik loyihasini tuzib olishi lozim. Darsni texnologik loyihalash uchun esa o'qituvchi interfaol metod strategiyalari va usullari bilan yetarli darajada tanish bo'lishi kerak. O'qitish usullariga quyida ko'rsatilgan muayyan talablar qo'yiladi:

- o'quv materialini o'rganishning o'qituvchi tavsiya etgan yo'li mustaqil qarashlar, irodaviy xususiyatlar va xulq-atvorning shakllanishiga olib borishi kerak;
- o'qitish metodining ilmiy asosi yaqqol va aniq bo'lishi lozim, shundagina o'qituvchi mazkur metod orqali qanday masalalar qo'yilishi va hal qilinishi mumkinligini anglay oladi;
- o'qitish metodining tushunarliligi o'quvchi tomonidan qabul qilinishi va qo'llanilishi, o'quv materialini o'rganish usullari hamda bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatlariga muvofiq bo'lishi zarur;
- o'qitishning onglilik va faollik tamoyillariga jiddiy e'tibor qaratilishi talab etiladi.

Har qanday metoddan muayyan maqsadga erishish ko'zda tutiladi va shu sababli u aniq maqsad qo'yishni, unga erishish bo'yicha faoliyat usullarini hamda ushbu faoliyatni amalga oshirishda yordam beradigan vositalarni bilishni taqozo etadi. Har qanday faoliyat o'z ob'ektiga ega bo'lib, metod oxir-oqibat qo'yilgan maqsadga olib borishi kerak, aks holda, maqsadning yaroqsizligi yoki metodning noto'g'ri qo'llanilganligi e'tirof etiladi.

Ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, interfaol metodlarni qo'llagan holda darslarni tashkil etish bugungi kun ta'limining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi, chunki ta'lim jarayoniga qo'yilayotgan asosiy talablardan biri an'anaviylikdan, ya'ni bir xillikdan chekinib, har bir darsda turli usullardan foydalanishni taqozo etadi. Dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish orqali o'quvchilarga berilayotgan ta'lim sifati sezilarli darajada oshadi. Interfaol metodlar o'qituvchi–o'quvchi hamda o'quvchilarning o'zaro hamkorlik faoliyatida namoyon bo'lib, ularning bosh maqsadi o'quv jarayoni uchun eng qulay muhitni yaratish orqali o'quvchining faol va erkin fikr yuritishini ta'minlashdan iborat. Interfaol metodlar asosida tashkil etilgan dars jarayonida birorta o'quvchi chetda qolmaydi, ya'ni barcha o'quvchilar o'z fikrlarini ochiq va erkin ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Ta'lim jarayonini interfaol metodlar asosida tashkil etishda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida sog'lom psixologik muhit yaratiladi, o'quvchilar o'qish va tadqiqot faoliyatida bir-biriga ko'maklashadi, zarur o'quv materiallariga ega bo'ladi, ijodkorlik rag'batlantiriladi, fikr almashish va mulohaza yuritish imkoniyati kengayadi, nutqiy rivojlanish qo'llab-quvvatlanadi hamda ma'lumotlarni mustaqil o'zlashtirish ko'nikmalari shakllanadi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilarga bilim berish bilan bir qatorda ularni erkin va mustaqil fikrlashga o'rgatish talab etilmoqda, zero mustaqil fikrga ega bo'lgan yoshlar vatanni sevadi, ona tabiatga ongli munosabatda

boʻladi va kelajakka umid bilan qaraydi. Ushbu fazilatlarni oʻquvchilarda shakllantirishda interfaol metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim jarayonini tashkil etishda oʻqituvchi va oʻquvchi oʻrtasidagi ta'limiy va tarbiyaviy ishlarni uygʻunlashtirish, shuningdek, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda treninglardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va zamonaviy innovatsiyalar barcha sohalar hamda insonlar hayotiga jadal kirib kelmoqda, shu bois yoshlarni yuksak ma'naviyatli, teran tafakkurli va uzoqni koʻra oladigan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun ularga yuqori saviyada zamonaviy bilim va ta'lim berish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Boshlangʻich sinf darslarini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etishda oʻqituvchi aniq maqsadlarni belgilab olishi, darslarni kimga, qanday, qachon, nimadan va qanday foydalanib oʻtishi hamda qanday natijaga erishishini puxta rejalashtirishi lozim. Shu nuqtayi nazardan darslarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish, interfaollikni oshirish, oʻquvchilarning motivatsiyasini rivojlantirish va barcha oʻquvchilarni ta'lim jarayoniga toʻliq jalb etish dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

## XULOSA

Interfaol metodlar orqali zamonaviy darslarni tashkil etish ta'lim tizimining innovatsion rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu metodlar oʻquvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, kompetensiyalarni shakllantirish hamda ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy sifatlarga ega boʻlgan oʻqituvchi interfaol metodlardan samarali foydalana olgan taqdirdagina ta'limning asosiy maqsadlariga erishish mumkin. Yangi zamonaviy bilimlarni yoshlarga yetkazish, ularning bilim saviyasini innovatsion usullar yordamida yuksak bosqichga koʻtarishda oʻqituvchidan katta mahorat va mashaqqatli mehnat talab etiladi.

Oʻqituvchi fanlarni oʻqitishda zamonaviy usullardan foydalanib dars olib bormasa, bugungi oʻquvchilarni samarali boshqara olmaydi. Oʻquvchilarni bir xilda bilimli qilish esa bir muncha murakkab masala hisoblanadi. Buning sababi maktablarda oʻquvchilar sonining koʻpligi, ularga ajratilgan vaqtning nomutanosibligi kabi kamchiliklarning mavjudligidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvardagi "2022–2026-yillarga moʻljallangan Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida"gi PF-60-son Farmoni. https://lex.uz/docs/-5841063
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "Oʻzbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida"gi PF-5712-son Farmoni. https://lex.uz/docs/-4312785
3. Tolipov, Oʻ., Usmonboyeva, M. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2020.
4. Xasanboyeva, Oʻ., Raxmonov, S. Zamonaviy ta'limda interfaol metodlar va innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
5. Bonwell, C. C., Eison, J. A. Active learning: Creating excitement in the classroom. – Washington, DC: ASHE-ERIC Higher Education Report, 1991.
6. Prince, M. (2004). Does active learning work? A review of the research. Journal of Engineering Education, 93(3), pp. 223–231.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha) |
| 13.00.07 | Ta’limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

**MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI**

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2026. №2(1)**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.